



**Proceedings of International Conference on Educational Discoveries and Humanities  
Hosted online from Plano, Texas, USA.**

**Date:** 1<sup>st</sup> January, 2024

**ISSN:** 2835-3196

**Website:** econferenceseries.com

## **AHMAD DONISHNING TABIIY FANLAR YO'NALISHIGA OID QARASHLARIDA TARBIYA MASALALARI**

Murodaliyeva Shaxnozaxon Maxmudovna  
Osiyo xalqaro universiteti magistranti

Naimov Ismat Nusratullayevich  
Ilmiy rahbar

Zamonaviy dunyoni ilm-fan, ma'rifat va ta'lif taraqqiyotisiz tasavvur etib bo'lmaydi. Dunyoning aksariyat mamlakatlarida ta'lifni rivojlantirish asosiy vazifa sifatida belgilanishi ham beziz emas. Negaki, mamlakatning istiqboli aynan ushbu sohada qo'lga kiritgan yutuqlari bilan chambarchas bog'liqdir.

**Kalit so'zlar:** tabiiy fanlar, geologiya, seysmologiya, qomusiy olim, ma'danlar Zero, o'g'il-qizlarimizni tabiiy fanlari bo'yicha chuqur o'qitish hududlarda yangi yangi ishlab chiqarish korxonalarini barpo etish, yuqori qo'shilgan qiymat yaratadigan farmatsevtika, neft, gaz, kimyo, tog'-kon, oziq-ovqat sanoati tarmoqlarini jadal rivojlantirishga turki beradi hamda pirovardida xalqimiz turmush sharoiti va daromadlarini oshirishga puxta zamin hozirlaydi. Hozirgi davrda, tabiiy fanlarga qiziqlishi bo'limgan kishini keng dunyoqarashga ega deb bo'lmaydi

Buyuk qomusiy olim Ahmad Donish o'z zamonasining ilg'or fikrli olimi, yozuvchisi, mutafakkiri, davlat arbobi har sohani, ayniqsa, falakkiyot, falsafa, me'morchilik, muhandislik, gidromilirasiya, geologiya va bir qator fanlarni egallagan bilim sohibi sifatida tarixda yorqin iz qoldirdi.

Ahmad Donish "Navodir ul-vaqoe" asarida ijtimoiy, tabiiy fanlar fanlarni tarafdoi sifatida shuhrat qozondi, ularni o'rganishni talab darajasiga olib chiqdi.

Ahmad Donish "Navodir ul-vaqoe" asarida ma'danlarning, buloq suvlarining, tog'larning paydo bo'lishi, Yerning tarkibi haqida o'z fikrlarini bayon etadi: "Erning ichi uch tabaqadan tarkib topgan bo'ladi. Birinchi tabaqasi quruq tuproq. ...Ikkinchisi yopishqoqo loy tabaqasiyu. ...Uchinchisi sahro tosh tabaqasidir. Ammo yer markazining o'zi esa qizg'in, sassiq bug' bilan to'ldirilgan va u ichi bo'sh tarvuzga o'xshaydi"<sup>1</sup> Mutafakkir fikrini davom ettirib, shunday yozadi: "Aql

A.Donish."Navodir ul vaqoe" O'zbekiston SSR Fan nashriyoti 1964-y 97 -b  
A.Donish."Navodir ul vaqoe" O'zbekiston SSR Fan nashriyoti 1964-y 96-b



## Proceedings of International Conference on Educational Discoveries and Humanities Hosted online from Plano, Texas, USA.

Date: 1<sup>st</sup> January, 2024

ISSN: 2835-3196

Website: econferenceseries.com

o‘lchovi bilan jismlar olamining yaratilish yo‘li shundaki, falakil buruj, ya’ni sakkizinchı falakning o‘tlik uch burchidan doim issiqlik tushib turadi. Shunga o‘xshash uning havolik uch burchidan to‘xtovsiz sovuqlik, suvlik uchburchidan hamisha ho‘llik, tuproqli uchburchidan esa doimo quruqliu tushib turadi. Ammo bu to‘rt unsurning tushishi ketma-ket bo‘lib, oralarida hech vaqt uzilish bo‘lmaydi. Demak, bu to‘rt unsurning qo‘silishi va aralashishidan Yer yuzaga chiqadi

Bu unsurlarning yerga tushishlari to‘xtovsiz bo‘lganidek, yerdan yuqoriga ko‘tarilishlari ham to‘xtovsizdir <sup>2</sup>“Navodir ul-vaqoe”da muallif juda ko‘p ijtimoiy-siyosiy, falsafiy, adabiy, axloqiy-ta’limiy, irfoniy-ma'rifiy masalalar xususida zamonasining peshqadam ziyolisi sifatida mulohaza yuritadi, islohotchi ma'rifatparvar sifatida bu sohadagi nuqson va kamchiliklarni bartaraf etish yo‘l-yo‘riqlarini tavsiya etadi. U o‘tgan faylasuflar mavzularini davom ettirib, falsafiy-ijtimoiy masalalarni yangicha nuqtai nazardan, zamon talabi va jamiyat sharoiti asosida ko‘rib chiqdi. Asarning o‘n oltinchi bobida tog‘ jinslarining paydo bo‘lishi, konlar, turli ma’danlarning xossalari, yer qimirlashi xususida ma'lumot beradi

Agar u qamalgan bug‘ suyuq va yengil bo‘l- sa, undan yoqut, oltin, kumush kabi qimmatbaho ma’dan- lar paydo bo‘ladi. Agar u og‘ir va quyuq bo‘lsa, undan temir, mis kabi ma’danlar tug‘iladi.

Tabiiy fanlar sirasiga kirgan kimyo va geologiya fanlari dunyoviy fanlar sifatida jamiyatning iqtisodiy rivojida katta o‘rin tutadi. Ahmad Donishning “ Navodir ul-vaqoe”da shu fanga aloqador fikrlar g”oyat katta ahamiyatlidir. Asarda qimmatbaho metallarning tabiatda paydo bo”lish tavsiotlari ilmiyligi bilan diqqatga sazovordir. “Agar u qamalgan bug‘ suyuq va yengil bo‘l- sa, undan yoqut, oltin, kumush kabi qimmatbaho ma’dan- lar paydo bo‘ladi. Agar u og‘ir va quyuq bo‘lsa, undan temir, mis kabi ma’danlar tug‘iladi”. Tog‘lar va ma”danlarning yaratilishida quyoshning xizmati hammadan ko”proq desak, u holda, o”tgan hukamolarning so”zlari ham to”g”ri keladi. <sup>3</sup> :

- 
- A.Donish.“Navodir ul vaqoe” O‘zbekiston SSR Fan nashriyoti 1964-y 96-b  
A.Donish.“Navodir ul vaqoe” O‘zbekiston SSR Fan nashriyoti 1964-y 100-b  
A.Donish.“Navodir ul vaqoe” O‘zbekiston SSR Fan nashriyoti 1964-y 100-b  
A.Donish.“Navodir ul vaqoe” O‘zbekiston SSR Fan nashriyoti 1964-y 96-b



## Proceedings of International Conference on Educational Discoveries and Humanities Hosted online from Plano, Texas, USA.

Date: 1<sup>st</sup> January, 2024

ISSN: 2835-3196

Website: econferenceseries.com

Buyuk allama hayot “ Navodir ul vaqoe’ asarida shunday malumotlaar keltiradiki bugungi kun o’quvchisi uni zukko geograf olim sifatida taniydi “ Olam sayohatchilaridan biri aytgan Falg’ar va Fan tog’larining sharq tomonidan kirdim, bu to’g’lar yer yuzidagi tog’larning eng ulkanlaridan hisoblanadi. Bularning boshi Xitoydan bo’lib, davomi Samarqand va Buxoroning janubidan o’tadi va Eron tuprog’iga kiradi” <sup>4</sup>Qomusiy olimning e’tiroficha yer va uning shakli , falaklarning joylashishi, ularning samoda muallaq turishi, doimiy harakatda bo’lishi haqida ilmiy faktlarni keltirishi uning naqadar serqirra ilm sohibi ekanligidan dalolatdir:

U o’sha davrdayoq o’z zamona ahlidan ilgor fikrlari bilan ilgarilab ketganligini, lekin mustabid tuzim tufayli uning qarashlari e’tiborsiz qolganligini bugungi kun yoshlari anglab yetmoqdalar, uning bu ilmiy qarashlarini yukasak baholamoqdalar.<sup>5</sup>

Ahmad Donish tabiatni sinchkov kuzatuvchisi sifatida asarda shunday voqealarni keltiradiki , unda biz seysmologiya faniga oid ma’lumotlarni uchratamiz. “... bir baland tog’ boshining eng yuqori cho’qqisida keng va tekis bir maydonga chiqdim. Uning ustida bir g’or bo’lib, g’orning xumning og’zidek teshigidan quyosh rangidagi o’t on gaz yuqoriga otolib chiqadi”<sup>6</sup>

“ Navodir ul-vaqoe” sarining “ Eronlik bir savdogarning hikoyasi” bobida muallif hikoya ichida hikoya usulidan foydalanib, dunyo mamlakatlari : Kalkutta, London, Amerika .Hindiston kabi bir qatot o’sha davrda rivojlangan mamlakatlar va ularning geografik joylashuvi va o’ziga xos jihatlari haqida, ma’lumotlarni o’z ichiga olgan voqeい hikoyalarni keltiradi. Jumladan: “ London shahrining jug’rafiy o’rnı g’arbi shimolda bo’lib, Kalkutta esa sharqi jnubdadır” <sup>7</sup>

Xulosa qilib aytganda Ahmad Donish “ Navodir ul vaqoe “ asarini to‘liq xolda tadqiq etish biz o‘rganayotgan mavzu doirasi keng kamrovli tabiiy ilmiy merosi bugungi kun insoniyat ma’naviy dunyoqarashining shakllanishida muxim ahamiyatga egadir.

<sup>7</sup> A.Donish.“Navodir ul vaqoe” O’zbekiston SSR Fan nashriyoti 1964-y 98-b



**Proceedings of International Conference on Educational Discoveries and Humanities  
Hosted online from Plano, Texas, USA.**

**Date:** 1<sup>st</sup> January, 2024

**ISSN:** 2835-3196

**Website:** econferenceseries.com

## **ADABIYOT VA MANBALAR RO'YXATI**

1. Naimov.I. A covereje of the activitiec of the Mangitic Emirs in the works of Ahmad Donish // Internasianal Journal on integrated Education.-Indonesia, 2021.Vol.4.No.5.-P.36-45 (Impact Factor: SJIF 7.242).
2. Naimov.I. Isuues of religious tolerance in the work of Ahmad Donish “ Meyor-ul-tadayun”// International journal of Intellectual and Cultural Heritage.-Volume”Issue:02/2022. –P. 169-175.
3. Naimov. I. Meyor-ut-tadoyyun - diniy-axloqiy manba sifatida // Islom ziyosi-Toshkent, 2021. -№ 2.-B. 46-54.
4. Ahmad Donish. “Navodirul vaqoe” ( “Nodir voqealar”). – Toshkent: Fan, 1964 y. – B. 361. (Ahmad Donish. Navodirul vaqoe / Rare events. - Tashkent: Science, 1964. - P. 96.)
- 5.T.E.Rahmonov, M.Z.Orziyevning “Ikki tarixiy siymo” 20-bet
- 6.Abdahalil Razzoqovning “Iqtisodiy tafaffurlar sharchashmasi” Toshkent “O’zbekiston” 2011-yil
7. Afoqova.N. "Navodir ul-vaqoe"tarkibidagi she'riy matnlarga oid dastlabki kuzatishlar./Qomusiy mutafakkir, Buxoro, 2007.-B.23
- 8.Ahmad Donish. Navodir ul-vaqoe T.: Fan, 1964.- 411